



0871 - sonli
2025yil «17» dekabr

Komplayens nazoratiga oid hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, yangi tahrirda tasdiqlash va tizimlashtirish to'g'risida

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi majlisining 2025-yil 30-sentabrdagi 4-2025-son bayoniga muvofiq, shuningdek, Komplayens nazoratiga oid yangi tahrirdagi hujjatlar tasdiqlanganligini inobatga olib, "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv raisining 2025 yil 18 noyabrdagi 27-140-son buyrug'ining ijrosini ta'minlash, hamda "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QK faoliyatida komplayens nazoratini mustahkamlash va samarali joriy etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv raisining 2025 yil 18 noyabrdagi 27-140-son buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QK Komplayens xizmatining "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv raisining 2025 yil 18 noyabrdagi 27-140-son buyrug'i asosida o'zgartirilgan Nizomlari, siyosatlari, yo'riqnomalari, quyidagi tahrirda tasdiqlansin va 2025-yil 12-dekabridan kuchga kiritilsin:
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Manfaatlarni ta'minlash siyosati va uni qo'llash tartibi;
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Sovg'alar va mehmondostlik xarajatlari siyosati va uni qo'llash tartibi;
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha siyosati va uni qo'llash tartibi;
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks tekshirish bo'yicha siyosat va uni qo'llash tartibi;
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom;
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish protsedurasi.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Sanksiyalar va eksport nazorati siyosati.

- Aloqa kanallari orqali qoidabuzarliklar to'g'risida "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKga kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvishtirishga) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish siyosati.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKda Xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKda Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Biznes hamkorlarining odob-axloq kodeksi.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKga Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom.
3. Komplayens xizmat boshlig'i (B.Yuldashev) va Xodimlar bo'yicha department direktori o'rinbosari (A.Sherboyev)ga:

3.1. 2025 yil 31-dekabrga qadar komplayens nazoratiga oid yangi tahrirdagi hujjatlar bo'yicha "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QK xodimlari uchun quyidagi yo'nalishlarni qamrab olgan o'quv rejasini ishlab chiqilsin:

- Manfaatlar to'qnashuvi va uni oldini olish choralari;
- Sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlari: ruxsat etilgan va taqiqlangan amaliyotlar;
- Xayriya va homiylik faoliyatida shaffoflik ta'minlash;
- Biznes hamkorlar bilan ishlashda due diligence talablari;
- Korrupsiyaviy risklarni aniqlash va baholash;
- Xizmat tekshiruvlari jarayoni va tartib-qoidalari;
- Ishga qabul qilishda kompleks tekshirish bosqichlari.

3.2. 2026 yil 1-yanvardan boshlab tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq, barcha xodimlar uchun o'quv mashg'ulotlari tizimli ravishda tashkil etilsin;

3.3. O'quv rejasini asosida o'quv-metodik materiallar (taqdimotlar, qo'llanmalar, testlar, amaliy mashqlar va boshqalar) ishlab chiqilib, ularning mazmun-mohiyati xodimlarga tushunarli va samarali yetkazilishi ta'minlansin;

3.4. Har bir xodimning o'quvdan o'tganligi va komplayens talablarini o'zlashtirish darajasi haqida hisobot yuritilsin.

4. "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QK barcha departament va bo'limlar rahbarlariga:

- mazkur hujjatlarda belgilangan talablarni xodimlarga tushuntirish va ularni xabardor qilish maqsadida, davra suhbatlari, seminar va treninglar tashkil etish choralari ko'rilsin;
- hujjatlar mazmuni bilan barcha xodimlarni tanishtirilishi ta'minlansin va tegishli rozilik varaqlari imzolansin.
- Xodimlarning komplayens talablariga rioya etishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin va qonun buzilishi holatlari aniqlanganda Komplayens xizmatga

zudlik bilan ma'lumot berilsin.

5. Komplayens xizmat boshlig'iga:

- hujjatlar talablarining ijrosi ustidan doimiy monitoring o'rnatilsin;
- har chorakda hujjatlar ijrosi yuzasidan monitoring hisoboti tayyorlansin va rahbariyatga taqdim etilsin.

6. Barcha departament va bo'limlar rahbarlariga:

- komplayens nazoratiga oid yangi tahrirdagi hujjatlar, korxonaning amaldagi ichki normativ hujjatlari bilan muvofiqlashtirilsin;
- mazkur hujjatlarda belgilangan talablar bo'yicha xodimlarga davra suhbatlari, seminar va treninglar orqali tushuntirilishi hamda yetkazilishi tashkillashtirilsin;
- talablarni ichki jarayonlarga integratsiya qilinishi ta'minlansin;
- amaliyotga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, ijrosi nazorat qilinsin;
- 2026 yil 1-mart holatiga komplayens talablarining o'zlashtirilishi yuzasidan hisobot tayyorlansin.

7. 2025-yil 11-dekabrda quyidagi hujjatlar "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QK faoliyatida o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin:

- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Manfaatlar to'qnashuvi siyosati va uni qo'llash tartibi;
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlari siyosati va uni qo'llash tartibi;
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha siyosati va uni qo'llash tartibi;
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks tekshirish bo'yicha siyosat va uni qo'llash tartibi;
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Xizmat tekshiruv o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom;
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma.
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti.
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish protsedurasi.
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Sanksiyalar va eksport nazorati siyosati.
- Aloqa kanallari orqali qoidabuzarliklar to'g'risida "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKga kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti.
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvishga) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish siyosati.
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati.
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKda Xodimlarning etika va korrupsiyaga

- qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma.
- "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKda Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKning Biznes hamkorlarining odob-axloq kodeksi.
 - "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QKga Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom.
8. Xodimlar bo'yicha departament direktori o'rinbosari (A.Sherboyev) mazkur buyruqni "BYD Uzbekistan Factory" MChJ QK barcha bo'limlariga yetkazish va xodimlarni tanishtirilishini ta'minlasin.
9. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Komplayens xizmat boshlig'i (B.Yuldashev) zimmasiga yuklatilsin.

Tasdiq

Bosh direktor



A. A. Muxitdinov

Rozilik

Departament direktori

Yuridik departament



B. E. Ochilov

**Xodimlar bo'yicha
departament direktori
o'rinbosari**

*Xodimlar bo'yicha
departament*



A. R. Sherboyev

Bo'lim ichida rozilik

Xizmat boshlig'i

Komplayens xizmati



B. J. Yuldashev

Mas'ul

Mutaxassis

Komplayens xizmati



U. A. Saatov